



MARKAZIY OSIYO XALQLARIDA ZARDUSHTIYLIK QOLDIQLARI (NIKOH TO'YI MISOLIDA)

Aziza Umarova

2-son politexnikum o'qituvchisi

Sayxunobod tumani, Sirdaryo viloyati, O'zbekiston

Annotatsiya. Maqolada o'zbeklar, tojiklar, buxoro yahudiylari va qozoqlarning zardushtiylik bilan bog'liq bo'lgan kelin va kuyovni gulxan atrofida aylantirish marosimi haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: to'y, olovga sig'inish, nikoh to'yi, marosim, zardushtiylik, gulxan, «kelin biyori».

ПЕРЕЖИТКИ ЗОРОАСТРИЗМА У НАРОДОВ ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ (НА ПРИМЕРЕ ЦЕРЕМОНИИ БРАКОСОЧЕТАНИЯ)

Азиза Умарова

преподаватель политехникума №2

Сайхунабадский район, Сырдарьинская область, Узбекистан

Аннотация. В статье приводятся сведения о зороастрийском обряде обхода жениха и невесты вокруг костра у узбеков, таджиков, бухарских евреев и казахов.

Ключевые слова: свадьба, огнепоклонничество, церемония бракосочетания, ритуал, зороастризм, костёр, «привези невесту».

ZOROASTRIAN REMAINS AMONG THE PEOPLES OF CENTRAL ASIA (USING A WEDDING CEREMONY AS AN EXAMPLE)


Aziza Umarova

teacher, Polytechnic No. 2

Saihunabad District, Syrdarya Region, Uzbekistan

Abstract. This article provides information about the Zoroastrian ritual of the bride and groom walking around a fire among Uzbeks, Tajiks, Bukharan Jews, and Kazakhs.

Keywords: wedding, fire worship, marriage ceremony, ritual, Zoroastrianism, fire, "bring the bride."



Markaziy Osiyo xalqlarida zardushtiylikning qoldiqlari ko'proq folklor an'analari, urf-odatlar, marosimlari va e'tiqodlari shaklida, shuningdek, ba'zi dafn marosimlari va mavsumiy bayramlarda namoyon bo'ladi. Ular ayniqsa olovga, tabiatga sig'inish bilan bog'liq. Bu unsurlar shomonlik va tengrilik kabi mahalliy e'tiqodlar bilan aralashib ketgan va qisman islom tomonidan siqib chiqarilgan, ammo ommaviy madaniyatda o'z mavjudligini saqlab qolgan, bu mintaqaning qadimgi zardushtiylik o'tmishidan dalolat beradi. Olovga sig'inish: bahorgi bayramlarda (Navro'z) olov yoqish kabi olov bilan bog'liq marosimlari, kelin-kuyovni uyga kirgizishdan oldin gulxan atrofida aylantirish odati zardushtiylarning muqaddas olovga sig'inishidan kelib chiqqan.

Bir qator tadqiqotlarda urf-odatlardagi zardushtiylik qoldiqlari tahlil qilnadi. Masalan, A.Xonxujayeva [12] samarqandlik tojiklar nikoh to'yi marosimlarining leksikasini keltirgan. G.Saidov va A.Inoyatovlar [9] kitobida Buxoro tojiklari va yahudiylarining urf-odatlar haqida yozib, kelin biyori odatini ham tasvirlab o'tilgan. E.Qasabekova va S.Seydumanov [13] zardushtiylik unsurlarining qozoq diniy madaniyatidagi ahamiyatini o'rganib chiqdilar. G.B. Kusainov [6] qozoq nikoh marosimlari o'z tarixi davomida islomgacha bo'lgan qadimiy xususiyatlarni saqlab kelganligini ta'kidlaydi. S.Amosova Buxorolik yahudiylarning to'y marosimlari haqida bir qator axborotchilarning xotira esdaliklarini keltiradi [2].

Tabiiy kuchlarga, suvga, yerga va daraxtlarga sig'inish bilan bog'liq qadimiy e'tiqodlar ham zardushtiylik ildizlariga ega. Bu an'anaviy marosimlar va mahalliy e'tiqodlarda o'z aksini topgan. Ko'pgina mavsumiy bayramlar, ayniqsa bahorda, qadimgi ildizlarga ega va zardushtiylik kosmologiyasi va yaxshilik va yomonlik o'rtasidagi kurash bilan bog'liq elementlarni o'z ichiga oladi. Xalq orasida keng tarqalgan ba'zi xurofotlar va xalq belgilari zardushtiylikda ham mavjud bo'lgan poklik va nopoklik haqidagi qadimgi g'oyalar bilan bog'liq bo'lishi mumkin.

Xalq madaniyatida zardushtiylik kabi qadimiy dinning ta'siri bugungi kungacha saqlanib qolgan. Bu elementlarni mahalliy urf-odatlar, e'tiqodlar va marosimlarda, ayniqsa qadimgi ko'chmanchi va dehqonchilik madaniyatining kuchli ta'siri saqlanib qolgan joylarda kuzatish mumkin.

Surxondaryo viloyatidagi Tog'li Boysun va Ko'xitang qishloqlarida kelin otdan tushishi bilan ko'chaning ikki tarafidagi hovliga kiraverishda olov yoqiladi. Qaynona, har qanday zarar, yomon ko'z va ziyonni yuktirmaslik uchun, ularni olovda yondirish, uy esa poklanishi kerak degan ma'noda, kelinni ikki olov orasida yurgizadi. O'zbekistonning ayrim hududlarida kelinni kuyov ko'tarib, uch marta olov atrofida aylantirgan. Olovni yoqish marosimidan keyin kuyov kelinni uyga olib kirgan [8, 59-bet].

Kelin va kuyov atrofida joylashgan gulxan bilan bog'liq to'y marosimi Sibir va Oltoyning ba'zi xalqlarining marosimlarida, shuningdek, Yevropa madaniyatlarida



ham uchraydi. Bu poklik, unumdorlik, shuningdek, ikki urug' va oilaning birlashishini anglatishi mumkin.

Olov odatda muqaddas element hisoblanadi, yangi turmush qurganlarni uzoq va baxtli hayot uchun poklaydi va barakalaydi. Kelin va kuyov olov ichidan o'tadi yoki uning atrofida boshqa marosimlarni bajaradi, bu ularga kelajak uchun kuch va baraka beradi, deb ishoniladi. Ba'zida olov marosimlari yovuz ruhlarni qo'rqitish yoki baxt va farovonlikni jalb qilish uchun ramziy olov yoki gulxan yoqishni o'z ichiga olishi mumkin.

Buxorodagi to'yning "kelin biyori" (kelinni olib kelish) bosqichida kelinning aka-ukalari kuyovni kutib olishadi, salomlashish marosimidan so'ng unga kelinni topshirishadi. Kelin va kuyov kuyovning uyiga ketishadi. U yerda ularni kuyovning qarindoshlari kutib olishadi. Kuyov kelinni ko'tarib, gulxan atrofida 3 marta aylanadi va keyin uyga olib kiradi. Bu odat zardushtiylikdagi olov bilan poklanish odatiga borib taqaladi [9].

O'rta Osiyolik yahudiylar yoki buxorolik yahudiylar 1970 yillargacha asosan O'zbekiston va Tojikistonda istiqomat qilishgan. Ayniqsa, Samarqand, Toshkent, Dushanbe, Buxoro, Qo'qon, Andijon, Marg'ilon, Xatirchi, Shahrisabz shaharlarida ko'p bo'lgan. Ya'ni, XIX-XX asr boshlarida ular Buxoro xonligi va Buxoro amirligi hududida istiqomat qilishgan, shuning uchun buxoro yahudiylari deb atalganlar. O'rta Osiyoda dastlabki yahudiy turar joylari I mingyillik oxirida paydo bo'lgan, XIII asrda Buxorodagi yahudiylar jamoasi manbalarda tilga olingan va XVI asrdan boshlab Buxoro O'rta Osiyodagi yahudiylarning markazi bo'lgan.

XIX asr oxirida buxorolik yahudiylar 16 ming kishini tashkil qilgan bo'lsa, 1980-yillar oxiriga kelib ularning soni 45 ming kishiga yetgan. 1970 yillardan boshlab yahudiylar Isroil va AQShga ommaviy ravishda migratsiya qilgan. 1990-2000-yillardagi ommaviy emigratsiya paytida esa sobiq Sovet Ittifoqi respublikalaridan buxorolik yahudiylarning ko'pgina qismi ko'chib ketishgan. Sovet davrida aksildiniy tashviqot o'tkazilgan bo'lsa-da, xalq turmushidagi sunnat, to'y, janoza va boshqa marosimlarda bajariladigan rasm-rusumlar yahudiylar jamoasi tomonidan amalga oshirilgan edi. Ko'pchilik buxorolik yahudiylar buxoro-yahudiy va tojik tilida so'zlashishgan. Bugungi kunda Buxoroda 100ga yaqin yahudiylar istiqomat qilishadi, 2ta sinagoga, yahudiy maktabi va bog'cha bor.[2]

1980-1990-yillarda Buxoro va Samarqandda buxorolik yahudiylar to'ylarni bir hafta davomida bayramona ruhda o'tkazishgan. Dushanba kunidan boshlab har kuni o'zbeklar va tojiklarning rasm-rusumlariga o'xshash bo'lgan to'ydan oldingi, to'y davridagi va to'ydan keyingi odatlar bajarilgan. Nikoh va to'ydan keyin kuyov kelinni uyga olib kelganida, poklanish odati - alanga o'tkazilgan. Kuyov kelinni qo'llarida ko'tarib, alanga atrofida 3 marta aylanib, uyga olib kirgan va dasturxon yoniga o'tirg'izgan. Bu kuni qarindoshlar kuyov va kelinga sovg'a berishgan [2].



Islomgacha bo'lgan qozoq urf-odatlarida olovga sig'inish muhim o'rin tutgan. Olov uyning qo'riqxonasi, uyning himoyachisi hisoblangan. Katta (ota-ona) uyning o'chog'idagi olovni "ot-ana" – "ona olov" deb nomlashgan. Yangi oila uyiga kirgan kelin olovga qurbonlik keltirish uchun bir qoshiq sariyog'ni to'kishi kerak edi. Qozoqlar olovning poklovchi kuchiga ishonishgan: qishlovidan chiqib ketayotganda, yozgi manzillarda yovuz ruhlar ta'qib qilmasligi uchun o't, gulxanlar yoqib, chorva va ko'chmanchi karvonlarini o'rtalaridagi yo'lakdan haydab ketishgan. Qishlovga qaytganda ham ularni olov va tutun bilan fumigatsiya qilishgan. Shifolash marosimlarida ham olov hal qiluvchi rol o'ynagan [4, b. 104; 6, b. 63].

G.Kusainovning so'zlariga ko'ra, qozoq madaniyatida alohida kult yoki sajda sifatida o'tga sig'inish rivojlangan emas, lekin ko'chmanchilarning qadimiy e'tiqodi bo'lgan tengrilik doirasida olovga sig'inish elementlari mavjud bo'lgan. Tengrilikda olov muqaddas element hisoblanib, poklik, himoya va xudolar, ayniqsa Tengri (Samoviy Xudo) bilan bog'liqlikni anglatadi. Olovni ulug'lash poklanish, ruhlar va xudolar bilan aloqa o'rnatish, uydagi o'choqqa hurmat bilan qarashga qaratilgan maxsus marosimlar orqali ifodalangan.

Ayrim olimlar qozoqlarda qadimda shamanizm va tengrilik keng tarqalgan, deb hisoblasa-da, boshqa olimlar, masalan, M.S. O'rinbekovning ta'kidlashicha, "olovga sig'inish yoki olovga sajda qilish qozoqlarning an'anaviy e'tiqodlarining muhim qismi bo'lgan. olov sehrli kuchga ega hamda ruhlar va ajdodlar bilan bog'liq bo'lgan muqaddas element sifatida e'zozlangan tengrilik va shamanizmga asoslangan. Bu sajda turli urf-odatlar, marosimlar, qurbonliklar, olovdan shifobaxsh maqsadlarda foydalanish orqali o'zini namoyon qilgan va uning aks-sadolari bugungi kungacha xalq e'tiqodlarida, ayniqsa, qishloq aholisi orasida saqlanib qolganligini ko'rsatadi" [7]. Bundan tashqari, so'nggi arxeologik topilmalar zardushtiylik dinining ayrim hududlarda ham keng tarqalganligini ko'rsatadi. Xususan, Turkiston viloyatidagi Qizilko'l sohilida arxeologlar tomonidan qadimgi Qanguy davlati aholisiga tegishli marosimlar ibodatxonasi, qabriston va ko'plab ashyolar topildi. U yerda zardushtiylik ibodatxonasi va muhr ham topilgan [5]

Otashparastlik an'analari ming yillar davomida sug'dlar hayotining bir qismi bo'lib kelgan. Bahor kelishi bilan Tojikiston shimolida bahor bayramlari nishonlana boshlaydi va ularning bayramlari qadimgi oriylar marosimlarini o'z ichiga oladi. Mart oyida So'g'd viloyatida olov bayrami - Chorshanbesuri nishonlanadi, ya'ni "Qizil chorshanba". Shu kuni odamlar uyni tozalashdan keyin gulxan yoqadilar, uning atrofida raqsga tushadilar va qo'shiq aytadilar. Navro'zdan ellik kun oldin yana bir bayram - Sada nishonlanadi. Uning yoshi taxminan uch ming yil. Afsonaga ko'ra, bir marta Fors hukmdori ikkita tosh otgan; ular bir-birlarini urib, uchqun chiqarib, olov yoqishdi. O'shandan beri Sada har yili nishonlanadi [3].

Bo'lajak erni "Naqsh" qo'shig'ini aytib, kelinning uyiga olib boradilar. Bir guruh do'stlar va mahalla oqsoqollari kelinning uyi tashqarisida qo'shiq aytishni boshlaydi.

U yerdagi hovlida “Lalola” – ya’ni gulxan yoqiladi. Bu – So‘g‘d viloyatida saqlanib qolgan yana bir zardushtiylik marosimidir. Xuddi shunday gulxan to‘ydan keyin, kelin kuyovning uyiga olib kelinganda ham yoqiladi [3].

Yangi turmush qurganlar an’anaga ko‘ra olov atrofida uch marta aylanishadi. So‘g‘d viloyatida “Lalola” marosimi hamisha ashula va raqslar bilan kechadi. “Lalola” o‘g‘il bolani sunnat qilish paytida ham ijro etiladi – uni uch marta olov atrofida aylantirib yurishadi. O‘g‘il bolani o‘g‘li bo‘lmagan kishi ko‘taradi, Xudo unga bir farzand ato qilsin deb.

Bola tug‘ilganda uyda 24 soat davomida olov yonishi kerak edi va bu qat’iy nazorat qilingan edi. Bayramlarda esa kattalar va bolalar yonayotgan olov atrofida aylanib, o‘zlarini poklab, uning energiyasidan quvvat olishardi.

Shunday qilib, zardushtiylikda olovning ramziy ma’nolari: poklik va yangilanish ramzi (olov tozalovchi xususiyatga ega, shuning uchun u kelin va kuyovning birgalikda yangi hayot kechirishidan oldin ramziy poklanish uchun ishlatiladi); unumdorlik va nasl timsoli (bir qator madaniyatlarda olov unumdorlik bilan bog‘liq, shuning uchun uni to‘y marosimlarida qo‘llash yangi turmush qurganlarga farzand ko‘rish va oilasini davom ettirish imkoniyatini berish uchun mo‘ljallangan); birlik va bog‘liqlik ramzi (olov doirasi kuyov, kelin, ularning oilalari, shuningdek, to‘yda bo‘lganlarning barchasi o‘rtasidagi birlik va buzilmas aloqani anglatishi mumkin).

Umuman olganda, Markaziy Osiyo xalqlarida va boshqa ko‘plab xalqlarda ham zardushtiylik va butparastlik an‘analari asrlar davomida saqlanib qolgan. Olovni ulug‘lash dunyoning deyarli barcha xalqlari orasida keng tarqalgan. Eron mifologiyasida mavjudlikning olovli tabiati haqidagi umumiy hind-yevropacha g‘oyasi o‘z aksini topgan. Olovga sig‘inish Atar xudosi bilan bog‘liq. U zardushtiylikda mustaqil ahamiyatga ega bo‘lib, uning asosiy elementi bo‘lib xizmat qiladi. Zardushtiylik tarafdorlari uchun olov muqaddas element, ilohiy adolat timsoli hisoblanadi. Qadimgi marosimlar, birinchi navbatda, alohida qishloq joylarida saqlanib qolgan. Ular uzoq vaqt davomida qayta tiklandi. Olov atrofida aylanish, raqs va qo‘shiq aytish, kuyovga maxsus chopon kiydirish, kelinning oq to‘y libosi – bulaming barchasi Avesto davridan qolgan. Bu an‘analar Islom paydo bo‘lishi bilan ham saqlanib qoldi. Biroq, bunday marosimlar davri tugayapti, yangi urf-odatlar va rasm-rusumlar – islomiy va yangi dunyoviy an‘analar hayotimizga kirib kelmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Алибеков У. Ю. Земледельческие обычаи и обряды в этноэкологической культуре народов Узбекистана // Проблемы современной науки и образования № 11 (53), 2016. - С. 46-47. / <http://ipi1.ru/images/PDF/2016/53/PMSE-11-53.pdf>



2. Амосова С. Свадебный обряд бухарских евреев. // Лехаим. Октябрь 2011, тишрей 5772 – 10(234). <https://www.lechaim.ru/ARHIV/234/amosova.htm>
3. Зороастрийские ритуалы еще сохраняются // https://toptj.com/news/2013/3/7/zoroastriyskie_ritualy_eshe_sokhranyayutsya
4. История Казахстана (двенадцать лекций) / под ред. Ж. О. Артыкбаева. - Караганда: Издательство КарГУ, 1997. - 153 с.
5. Казахи были огнепоклонниками? 08.09.23. <https://inbusiness.kz/ru/last/kazahi-byli-ognepoklonnikami>
6. Кусаинов Г.Б. (2014). Религия в жизни кочевников и её синкретизм. Вестник Хакасского государственного университета им. Н. Ф. Катанова, (10), 61-64.
7. Орынбеков М.С. Генезис религиозности в Казахстане. – 2-е изд., перераб. и доп. – Алматы: ИФПР КН МОН РК, 2013. – 204 с.
8. Турсунов С. Н. (2020). СВАДЕБНЫЕ ЦЕРЕМОНИИ НАСЕЛЕНИЯ ГОРНЫХ КИШЛАКОВ БАЙСУНА И КУХИТАНГА. Наука, техника и образование, (10 (74)), 56-60. <https://cyberleninka.ru/article/n/svadebnye-tseremonii-naseleniya-gornyh-kishlakov-baysuna-i-kuhitanga>
9. Тўй (свадьба) - келин-бёри (проводы невесты в дом жениха) / Саидов Г., Иноятов А. Бухарские миражи. - Санкт-Петербург, 2007. - 516 с. <http://www.bukhara.uz/bukharskie-obryady/tuy-kelin-biyori>
10. Umarova A.U. O'zbeklarning milliy mentaliteti va milliy xarakteri. (2024). TAMADDUN NURI JURNALI, 5(56), 241-244. / <https://jurnal.tamaddunnuri.uz/index.php/tnj/article/view/141/97>
11. Umarova A. O'zbeklarda bolalar bilan bog'liq udumlar. / European science international conference: MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS. Vol.1, No.3. 2024. - P. 146-152. <https://esiconf.org/index.php/MRIATS/article/view/1058>
12. Хонхужаева, А. (2018). Традиционные особенности свадебных торжеств таджиков Самарканда. Иностранная филология: язык, литература, образование, 3(2) (67), 59–62. https://inlibrary.uz/index.php/foreign_philology/article/view/739
13. Қасабекова, Е., & Сейдуманов, С. (2022). ЭЛЕМЕНТЫ ЗОРОАСТРИЗМА В РЕЛИГИОЗНЫХ ТРАДИЦИЯХ КАЗАХСТАНА. Адам элeмi, 92(2), 163–172.

